

O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Soliev Jo'ramurod Otaqulovich¹, Umirova Nilufar Jo'ramurodovna²

¹A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedra o'qituvchisi, ²Jizzah ixtisoslashtirilgan san'at maktabi tasviriy san'at

bo'limi etakchi o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston

e-mail: odil.soliev @bk.ru

Annotasiya: Maqolada natyurmort janrida o'quvchilarning tushunchasini singdirish va ularning dunyoqarashini rivojlantirish masalalari haqida so'z yuritiladi. O'quvchilarga natyurmort ishlash mashg'ulotlari nazariy bilimlarga ega bo'lishi borasida amaliy maslahatlar beriladi.

Kalit so'zlar: Natyurmort, rangtasvir, kompozitsiya, realistik san'at, janr, kolorit, perspektiva, blik.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития у учащихся понимания и развития их мировоззрения в жанре натюрморта. Ученикам будут даны практические советы о том, как получить теоретические знания по натюрмортам.

Ключевые слов: Натюрморт, живопись, композиция, реалистическое искусство, жанр, цвет, перспектива и блик.

Annotation. The article discusses the development of students' understanding and development of their worldview in the genre of still life. Students will be given practical advice on how to gain theoretical knowledge of still lifes.

Key words: Still life, painting, composition, realistic art, genre, color, perspective and lens flare.

Tasviriy san'at fanini o'qitishda o'quvchi yoshlarga inson ongi, uning tafakkuri va hissiyotini rivojlantirishdek muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, estetik did hamda ma'naviy boyligini yuksaltiradi, bolalarni har tomonlama tarbiyalashda tasvirlash qobiliyati, zehning yahshi o'sishiga olib keladi. Bunday ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarini yuksak saviyada ilmiy asosda olib borish lozim. O'quvchilarni tasviriy san'at ilmi bilan puhta qurollantirish, fanning asosiy negizlarini singdirish va bu faoliyatni o'rgatish uslublari bilan qurollantirish, rasm chizish malakalarini shakllantirmog'i lozimdir. Shu boisdan hukumatimiz maktab o'qituvchilari zimmasiga madaniyatli, ma'lumotli, yuksak manaviy sifatlarga ega bo'lgan kelgusida jamiyatimizning faol quruvchisi bo'la oladigan kishilarni yetishtirishdek katta vazifalarni amalga oshirishni yuklaydi. Buning bosh omili dars mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tishda mahalliy ashyolardan foydalanishni

yo'lga qo'yishdir. Mahalliy ashyolar - o'quvchilar yashab turgan joy tabiat muhiti, jamiyat o'zgarishlari, yangiliklar, turmushda qo'llanadigan turli maishiy buymlar va xokoza narsalardan iboratdir. Bular o'quvchi ko'z o'ngida bo'lgani uchun har bir narsani tez tushinib, oson o'rganib oladilar. Mahalliy ashyolar tasviriy san'at fanining hamma bo'limlarida foydalaniladi. Rasm chizish mashg'ulotlarini tashkil etish va darsni o'tishda mahalliy ashyolardan foydalanishning samarali tomoni shundaki, ularni dasturiy ish rejasiga mos ravishda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mahalliy ashyolar har bir mashg'ulotning turi va mazmuniga ko'ra bir necha kun yoki mashg'ulotdan oldin tayyorlab olinadi. O'qituvchi narsaning o'ziga qarab rasm chizish mashg'ulotlarini tashkil etishda darsning maqsad va mazmuniga qarab, kerak bo'lgan mahalliy ashyolardan chizilishi lozim bo'lgan narsalarni tanlab ularni tayyorlaydi hamda, shu mahalliy ashyolarga mos uslubiy jihatlardan to'g'ri keladigan ko'rgazmali qurollar, narsalarning o'ziga qarab chizilgan rasmlar, qadimgi milliy mayishiy buyumlar va hokozolarni tayyorlaydi (1-rasm).



1-rasm. Maxalliy ashyolardan namunalari.

Mashg'ulot yuzasidan tuzilgan ishchi rejada o'quvchilarning uy vazifasini qay tarzda bajarilganligini tekshirish maqsadida besh nafar bolalar ijodiy ishi yig'ib olinadi, quyidagicha savollar bilan ular ishtirokida muhokama qilinadi:

Bu rasimga qarang qanday chizilgan?

Rasmda kamchiliklar bormi, kamchiligi nimada?

Ikkinchi rasimga qaranglar ish yaxshi bajarilganmi?

Uchinchi, to'rtinchi va beshinchi rasmlar bir-biriga solishtirgan holda bularning farqi nimada, ko'ring va yaxshi yoki yomon bajarilganligini ayting.

Shu tariqa rasmlar tekshirilib, baholanadi. Shundan so'ng yangi mavzuni bayon qilish boshlanadi 4-sinfda Narsalarning o'ziga qarab rasm chizish darsi, rangda 2-rasm (natyrmort)



2-rasm. Maxalliy ashyolardan tuzilgan qo'yilma (natyurmort)

Bu ashyolar bolalar hayoti bilan chambarchas bog'liqligi, ularni har kuni ko'rib kuzatishlari bularning yaratilishida ota-onalari, aka-opalarining ishtiroki haqida gapirib beriladi. Ashyo qaysi maqsadlarda foydalaniladi u nimadan tayorlanganligi temir yoki mismi, qanaqa ustalar tomonidan qaysi usulda bajarganligi haqida ham tushunchalar beriladi. So'ngra mustaqil ishga jalb etiladi.



3-rasm. Qo'yilmaning (natyurmort) to'rt bosqichli ko'rinishi.

Bu davirda oquvchilar narsalarning o'ziga qarab rasm chizar ekan, avvalo narsalarning tuzilishini, qog'oz yuzasiga to'g'ri joylanishiga e'tiborini qaratadilar bu ishlar muvaffaqiyatli bo'lgach, uch-tort bosqich asosida rangga o'tiladi. Ishni narsalarning asosiy ko'rinishlarini, ranglarini berishda och so'ngra to'qroq, keyin ishni tugatuvchi yorug', yarim soya, to'q soyalar, bliklar belgilanadi, ranglarning

qarama-qarshi uyg'unligi ko'rsatiladi, shu tariqa ish yakuniga etkaziladi. Rang berish o'qituvchi nazorati ostida olib boriladi.

Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarda mantiqiy fikrlar paydo bo'lib, ba'zi savollar tug'ilib qoladi, bu savollarga o'qituvchi tomonidan aniq va to'g'ri ma'lumotlar beriladi. Narsalarning o'ziga qarab rasm chizish darsida ko'rgazmali ashyolar haqida tushunchalar beriladi. Bu o'quvchilarga narsalarni har tomonlama kuzatish va o'rganish imkonini beradi, bunda qiziqish yanada ortadi.

Mustaqil ish davrida o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bajarayotgan ijodiy ishlarini kuzatib boradi, tegishli o'rinda hato va kamchiliklari bo'lsa yakka tartibda tushuncha hamda ko'rsatmalar taqdim etadi. Shu tariqa mashg'ulot yakunlanadi.



4-rasm. To'rtinchi sinf o'quvchisi bajargan ijodiy ish,



5-rasm. Uyga berilgan vazifa atirgul rasmini chizish

Uyga vazifa qilib, o'tilgan mavzuga mos bo'lgan mahalliy ashyolardan ba'zilarini shu jumladan atirgul rasmini rangli qalamda chizib kelish topshiriladi. Qisqacha tushunchalar beriladi, unda atirgulning gul barglari qizilligini hisobga olgan holda yo'nalishi bo'ylab "shtrih" usulida yorug'-soyalari ko'rsatiladi, uning barglari yashil hamda o'rtasidan o'tgan chiziqlari bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Т.Кузиев, С.Абдирасилов, У.Нуртаев, А.Сулаймонов. Изобразительное искусства 5 класса Ташкент. Узбекистан. 2020.
2. Ростовцев Н.Н Учебное рисование. 2-е изд., перераб. Москва. Просвещение, 1998, 270 с.
3. Бойметов Б.Б., Пластик анатомия. Амалий машғулотлар Т. 2011. 5-б

4. Xudoyberdiyev, P. (2021). Fanlararo integratsiya tasviriy sa'at ta'limi sifati va samaraorligini oshirishning didaktik imkoniyati sifatida. *Физико-технологического образование*, (5).

5. Xudoyberdiyev, P. (2020). Tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlar bajarish jarayonida talabalarni amaliy pyerspyektivadan foydalanishga o'rgatish. *Science and Education*, 1(8).

6. Xudoyberdiyev, P. (2020). Tasviriy san'at darslarida faoliyat turlari aloqadorligi asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning metodik asoslari. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).

7. Тоғаев, Х., Худойбердиев, П. У., & Ўмиров, А. А. (2019). Картография учун курвипланиметр. *Интернаука*, (20-3), 78-80.

8. Тоғаев, Х., Худойбердиев, П., & Ортикова, О. Ш. (2019). Таълимда ижодий тафаккур харакати психологик модели. *Научное знание современности*, (3), 31-35.

9. Baymurzayeva, O. S. (2020). Ixtisoslashgan san'at maktablarida o'quvchilarga natyurmortni rangtasvirda ishlashga o'rgatish metodikasi. *Science and Education*, 1(8).

10. Xudoyberdiyev, P. (2020). Tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlar bajarish jarayonida talabalarni amaliy pyerspyektivadan foydalanishga o'rgatish. *Science and Education*, 1(8).

11. Boymirzayeva, O. (2021). Oliy o'quv yurtlarida talabalarning badiiy va estetik madaniyatini rivojlantirish. *Физико-технологического образование*, (5).

12. Худойназарова, Ў. (2020). Живопись портрета в профессиональной подготовке будущего учителя изобразительного искусства. *Science and Education*, 1(7), 648-652.

13. Худойназарова, Г. А. (2017). Исследование сополимеризации стирола с гетероциклических эфиров акриловых кислот. *Ученый XXI века*, 14.